

## BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINFI O‘QITUVCHILARINI O‘Z-O‘ZINI RIVOJLANTIRISH KO‘NIKIMLARINI SHAKLLANTIRISH

**Abdullayeva Barno Sayfutdinovna**  
TDPU, pedagogika fanlari doktori, professor

**Aliyev Nurillo Abdiqayumovich**  
FJSTI, Biofizika va AT kafedrasida assistenti

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinfi o‘qituvchilarini intellektual rivojlantirishga metodik tayyorgarligini takomillashtirish mavzusining mohiyati va metodika tayyorgarlik tushunchasining mazmuni, o‘qituvchini metodik jihatdan mahoratli bo‘lib yetishishida zarur bo‘luvchi omillar va pedagogik zaruriy shart-sharoitlar haqida kerakli ma‘lumotlar nazariy jihatdan o‘rganilgan.

**Kalit so‘zlar:** oliy ta‘lim, metodika, intellektual, salohiyat, rivojlanish, mustaqil fikr, motivatsion, motiv, psixologiya, pedagogika, tafakkur.

## ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ ПРОБЛЕМЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕТОДИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

### АННОТАЦИЯ

В данной статье сущность темы совершенствования методической подготовки будущих учителей начальных классов для интеллектуального развития учащихся и содержание понятия методической подготовки, факторы, необходимые учителю для становления методической грамотности и необходимые педагогические условия необходимые ресурсы изучаются теоретически.

**Ключевые слова:** высшее образование, методология, интеллектуал, потенциал, развитие, самостоятельное мышление.

## PEDAGOGICAL NECESSITY OF THE PROBLEM OF IMPROVING METHODOLOGICAL TRAINING OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS

### ABSTRACT

In this article, the essence of the topic of improving the methodological preparation of future elementary school teachers for the intellectual development of students and the content of the concept of methodological preparation, the necessary factors and pedagogical prerequisites for the teacher to become methodologically skilled. necessary resources about the conditions are studied theoretically.

**Keywords:** higher education, methodology, intellectual, potential, development, independent thought, motive, psychology, pedagogy, thinking

Oliy ta'lim tizimini takomillashtirish, ta'lim sifatini yaxshilashni ta'minlashda moddiy omillar bilan bir qatorda, talabalarning metodik tayyorgarligini rivojlantirish darajasi, salohiyati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Oliy ta'lim tashkilotlarida talabalarning metodik tayyorgarligini takomillashtirish bo'yicha tegishli yondashuvlarni aniqlash maqsadida talabalarga ta'lim-tarbiya berishda bir nechta dasturlarni tahlil qilib, shular asosida hozirgi kunga qadar olib borilayotgan metodik faoliyatlarga alohida e'tibor qaratamiz.

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi intellektual fikrlay olish salohiyati, aqliy rivojlanishi, o'zini-o'zi anglash salohiyatini shakllantirishi, moddiy borliq go'zalliklarini his eta olishga o'rgatishi, boshqalar fikrlarini tushunishini, shaxsiy fikrlarini og'zaki va yozma bayon eta olish hislatlarini shakllantirishga erishishi lozim. "Ta'lim va fan sohasini rivojlantirish davlat siyosati ma'no-mazmuni va uning dolzarbligidan kelib chiqib, unga quyidagicha izoh keltirish mumkin: birinchidan, yangi ta'lim tizimi, barkamol avlod kadrlarni tayyorlashdagi o'zgarishlar va yangicha yondashuvlar, zamonaviy kasb sohasining paydo bo'lgani hamda uning mamlakatimiz sharoiti bilan bog'liqligidir; ikkinchidan, ta'lim tushunchasi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot natijasida muayyan davrdan boshlab inson faoliyatining alohida mustaqil sohasiga aylanib, jamiyatning ijtimoiy tajribasini keyingi bosqichga uzatadi; uchinchidan, ta'lim inson shaxsining intellektual-ma'naviy qirralarini shakllantirish, uning jamiyat ishlab chiqarish va ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ma'rifiy hayotida faol va muvaffaqiyatli ishtirokini ta'minlashga qaratilgan harakatlar yig'indisi bo'lib, ma'rifat hamda bilim berishni anglatadi; to'rtinchidan, fan jamiyatining ijtimoiy institutlaridan biri bo'lib, tabiat va jamiyat hayotini aks ettiruvchi ijtimoiy ong shaklidir. U katta ilmiy salohiyatni, ijodiy kuch-quvvatni birlashtirib, ma'naviy barkamol insonni tarbiyalashga, mamlakatda qudratli ilmiy salohiyatni yaratishga xizmat qiladi".

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 9-iyuldagi "Matematika ta'limi va fanlarni yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4387-son qarori, 2020-yil 7-maydagi "Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida" PF-4708-sonli Farmoni, 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-5712-son Farmoni [1] hamda

tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar ushbu maqolaning nazariy asoslari hisoblanadi.

Ta'lim sohasini isloh qilishni, avvalambor, boshlang'ich ta'limdan boshlash zarur. Zero, bolaning dunyoqarashi, didi, salohiyati shakllanadigan boshlang'ich sinflarda eng yetuk, eng tajribali murabbiylar biriktirib qo'yilishi darkor. Shu zaruratdan, maktab ta'limini, o'rta maxsus ta'lim tizimini, shu bilan birga oliy ta'limni ham tubdan isloh qilish rejalashtirilgan.

Ta'lim sifatini yaxshilash va samaradorligini oshirishda moddiy omillar bilan bir qatorda, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarni intellektual rivojlantirishga metodik tayyorgarligini takomillashtirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarni intellektual rivojlantirishga metodik tayyorgarligini takomillashtirish bugungi kun davr talablariga muvofiq kelajak avlod kadrlarini tayyorlashni davrning o'zi taqozo etmoqda.

Shu bilan birga, olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini rivojlantirish masalalariga B.S.Abdullaeva, A.Sadikova, M.Toshpulatova, Yu.Jabborova, N.Muxitdinova, Z.T.Nishonova, G.Mamatova, N.V.Kuz'mina, M.I.Luk'yanova, A.K.Markova, N.V.Matyash, Ye.M.Pavlyutenkov va boshqalar alohida to'xtalib o'tgan. B.S.Abdullaeva o'z ilmiy ishlarida boshlang'ich sinf o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini rivojlantirish, ta'lim vositalarini rivojlantirish, matematik tafakkurni rivojlantirish borasida o'quvchilar savodxonligini oshirishga oid ishlarni tahlil qilgan.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida metodik tayyorgarlikni takomillashtirishda zamon talablaridan kelib chiqib yondashish muhimdir. Bunda o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini oshirish uchun, ularda zarur pedagogik bilimlar (o'qituvchi mehnati, uning pedagogik faoliyati xususiyatlari, muloqot, shaxs to'g'risida, o'quvchilarning psixik rivojlanishlari, ularning yosh xususiyatlari to'g'risidagi psixologiya, pedagogik ma'lumotlar), ko'nikmalar (yetarlicha yuqori darajada bajarilgan xatti-harakatlar) shakllantirish lozim.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, zamonaviy ruhiy-pedagogik ilm-fanda tadqiqotlarning ikkita mustaqil yo'nalishi: intellektual rivojlangan maktab o'quvchilari o'qituvchisining psixologiyasi va o'qituvchini intellektual rivojlangan o'quvchilar bilan ishlashga tayyorlash alohida ajratiladi.

O'quv jarayonidagi didaktik vaziyatlar (o'qituvchining xulqini belgilovchi, uning o'z-o'ziga bahosi, didaktik qiziqishlari darajasini ifodalovchi, o'qituvchining motivatsiyasi, o'z mehnatining ma'nosini anglash bilan bevosita bog'liq uning o'quvchiga, hamkasblariga, o'ziga munosabatlari barqaror tizimi), o'qituvchilarning o'z fanlari haqida chuqur bilimga egaligi kabi ko'nikmalar shakllantirilishi zarur. Har

bir pedagogning motivatsion sohani rivojlantirishi ya'ni maqsad qo'ya olishi, qiziqishlarini to'g'ri taqsimlay olishi, shaxsiy motivlarini qamrab oluvchi psixologik sifatlar majmui malakaga aylantirilishi lozim.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi Qonuni, 23.09.2020 yildagi O'RQ-637-son.
2. Байденко В.И. Выявление состава компетенций выпускников вузов как необходимый этап проектирования ГОСВПО нового поколения. - М. - 2006. - 72 с.
3. Ховов О.В. Компетентность профессиональная // Энциклопедия профессионального образования: В 3-х т. - М.:АПО. - 1998.-Т.1. -С.454- 455.
4. Abdullayeva B., Aliyev N. Pedagogical Ability In Self-Development Of A Future Primary School Teacher //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 2. – С. 149-153.
5. Aliyev N., Ergasheva D. METHODS OF PROFESSIONAL SELF-DEVELOPMENT OF A PRIMARY SCHOOL TEACHER //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. B8. – С. 1679-1681.
6. Aliyev N., Muhammadjonov S. THE ROLE OF MATHEMATICS EDUCATION IN THE PROFESSIONAL TRAINING OF MEDICAL WORKERS. THE IMPORTANCE OF MATHEMATICS FOR A HEALTH WORKER. MATHEMATICAL METHODS AND STATISTICS IN MEDICINE //Бюллетень педагогов нового Узбекистана. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 39-42.
7. Nurillo N. A., Muhammadjonov S., Tojimatova L. THE ROLE OF MATHEMATICS EDUCATION IN THE PROFESSIONAL TRAINING OF MEDICAL PERSONNEL. THE IMPORTANCE OF MATHEMATICS FOR THE HEALTH WORKER //International Bulletin of Medical Sciences and Clinical Research. – 2023. – Т. 3. – №. 6. – С. 54-56.
8. Abdullayeva B., Aliyev N. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining o'z-o'zini rivojlantirishda pedagogik qobiliyatning ahamiyati //Бюллетень педагогов нового Узбекистана. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 74-78.
9. Abdiqayumovich A. N., Abdiqayumovna I. M. Fur'e Method for Solving Boundary Value Problems Placed in Parabolic Type Equations //Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science. – 2022. – Т. 3. – №. 11. – С. 107-113.
10. Abdullayeva B. S., Aliyev N. A., qizi Ergasheva D. S. Improving self-development competency of future primary class teachers //Educational Research in Universal Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 7. – С. 274-277.

11. Sayfutdinova A. B., Abdiqayumovich A. N. THEORETICAL ISSUES OF INCREASING TEACHING EFFICIENCY BASED ON MODERN ADVANCED PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN THE PRIMARY CLASS //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 10. – №. 11. – C. 233-239.
12. Sayfutdinovna A. B., Abdiqayumovich A. N. IMPROVING THE COMPETENCE OF THE FUTURE ELEMENTARY SCHOOL TEACHER IN SELF-DEVELOPMENT. – 2022.
13. Abdikayumovich A. N. et al. Innovative Approaches in Mathematics (Pisa and Timss Programs) //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2021. – T. 2. – №. 9. – C. 116-118.
14. Yusupova A. K., Aliyev N. A. SOME CONSIDERATIONS FOR TEACHING PROBABILITY THEORY AND MATHEMATICAL STATISTICS //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – T. 1. – №. 11. – C. 1183-1191.
15. Sayfutdinovna A. B., Abdiqayumovich A. N. IMPROVING SELF-DEVELOPMENT COMPETENCY OF FUTURE PRIMARY CLASS TEACHERS //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – T. 3. – №. 8. – C. 509-512.